UO‘K 811. 512. 133

SINKRETIZMGA KOGNITIV YONDASHUV

O.M. Tojiyev

XX asr tilshunosligida kognitivlik sinkretizmning asosi ekanligi haqidagi nazariy qarashlar ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo‘ldi. Sinkretizmning kognitivlik bilan bog‘liq hodisa ekanligiga XXI asr tilshunoslarining kognitiv metonimiya va metaforaga oid ishlarida to‘xtalib o‘tilgan. Maqolada kognitiv tilshunoslik elementlari bo‘lgan ssenariy, geshtalt, freymlar sinkretizm bilan uzviy aloqador ekanligi ochib berilgan. Kognitiv metonimiya hodisasining sinkretizm orqali voqelanishi til va nutqda keng imkoniyatlarga ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sinkretizm, ssenariy, geshtalt, freym, metonimiya, metafora, konseptual, sensor, ratsional.*

Теоретические взгляды на то, что когнитивность стала основой синкретизма в лингвистике XX века, стали предметом многих научных исследований. То, что синкретизм – явление, неразрывно связанное с когнитивностью, подчеркивается в работах лингвистов XXI века по когнитивной метонимии и метафоре. В статье выявлено, что наличие сценария, гештальта и фреймов, которые являются элементами когнитивной лингвистики, неразрывно связано с синкретизмом. Раскрывается тот факт, что реализация явления когнитивной метонимии посредством синкретизма имеет широкие возможности в языке и речи.

Ключевые слова: *синкретизм, сценарий, гештальт, фрейм, метонимия, метафора, концептуальный, сенсорный, рациональный.*

Tilshunoslikda sinkretizm hodisasining kelib chiqishi bilan bog‘liq turli qarashlar, bahslar hozirga qadar ham davom etmoqda. Chunki sinkretizm fanlararo tushuncha bo‘lganligi bu masalaga jiddiy e’tibor qaratishni talab etadi. Shu bilan birga, sinkretizmning fanlararo munosabatda shakllanganligi ham inkor etilmaydi. O‘rganilgan manbalarda sinkretizm psixologiya, mantiq, tarix, falsafa, shuningdek, tilshunoslik fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi ta’kidlanadi. Shu boisdan sinkretizmga fanning turli sohalariga aloqador hodisa sifatida qaraladi. Biroq sinkretizm har bir fanning o‘z ichki xususiyatlari asosida yoritiladi va ta’rif beriladi. Masalaga bunday yondashuv sinkretizmning har bir fan doirasida o‘ziga xos semantik tasviri namoyon bo‘lishini anglatadi. Sinkretizmning kelib chiqishini o‘rganish esa har bir fanga mansub bo‘lgan izohli lug‘atlar tizimida yoki ilmiy tadqiqotlarda aks etadi. S.A.Charekov ta’kidlaganidek, “birinchi sinkretik so‘z hech qanday grammatik kategoriyaga mansub emasligi va bu davr so‘zning evolyutsiyasi davri bo‘lib, sinkretizmga ishora edi. Zamonaviy tadqiqotlarda bu hodisaga faol yondashuv lozim bo‘lmoqda” [1. B. 71]. Shuning uchun ham so‘z ma’nolarining shakllanishi va o‘zgarishi, yangi ma’noning paydo bo‘lishi jarayoni mexanizmlari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Shunday qilib, mavzuning dolzarbligi ma’no o‘zgarishi jarayonini semantik nuqtayi nazardan (til va nutq darajasida) ko‘rib chiqish zarurati bilan xarakterlanadi.

Ayrim tilshunoslar so‘z ma’nolarining paydo bo‘lishi va o‘zgarishi mexanizmlarini o‘rganishda kognitiv yondashuvdan foydalanadilar. Bizningcha, ular qo‘llayotgan “kognitiv daraja” masalaning mohiyatini ochib berish uchun yetarli emas. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, til hodisalarini ochib berishda sof lingvistik yondashuv har doim ham masalaga oydinlik kiritib bera olmaydi. Shuning uchun olimlar fanlararo munosabat va usullarga murojaat qilishni muhim hisoblaydilar. I.A.Shirovaning ta’kidlashicha, kognitiv, diskursiv izohlash xususiyatlarini birlashtirgan paradigmaga murojaat qilish til haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga yordam

beradi [2. B. 131]. Til hodisalarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq kognitiv jarayonlar idrok, fikrlash, bilish, tushunishga asoslanadi. Kognitiv lingvistikaning tuzilishida avvalo insonning fikrlash jarayoni turadi. Bunday tushunish kategoriyalar, konseptlar, modellar, freymlar va boshqa jarayonlardan iborat bo‘ladi. Aytish mumkinki, til birliklarini kognitiv tavsiflashdan asosiy maqsad til birliklari o‘rtasidagi o‘zaro yaqin munosabatlarni aniqlash va tavsiflash, shuningdek, tafakkur va uning nutqda ifodalanishini ko‘rsatishdan iborat. Qo‘yilgan masala til imkoniyatlarining kengligi, so‘zlarning bir shakli turli grammatik kategoriyalarda turli ma’no ifodalashi haqida ekan, buni sinkretizmga bog‘liq holda tavsiflash mumkin bo‘ladi. Sinkretizm kognitivlik bilan bog‘liq hodisa ekanligi bir qator tadqiqotlarda aytib o‘tilgan [3. B. 131; 4. B. 103–112; 5. B. 120–125]. Binobarin, gap tarkibidagi bo‘laklar tartibini aniqlash uchun sintaktik tahlilning o‘zi etarli. Gap tuzilishidagi har qanday o‘zgarishlar (inversiya, ellipsis va boshqa shakliy o‘zgarishlar) va ma’no ko‘chishlarining turlari (sintaktik polisemiya, omonimiya), ularning yuzaga kelish sabablarini yoritish maqsadidagi tahlil, so‘zsiz, matn sintaksisi va pragmatikasi darajasiga ko‘tariladi. Bunday tahlil tilshunoslik sohalarining hamkorligi namunasidir [6. B. 8–9]. Keyingi yillarda tilshunoslar bunday “tayanch”ni kognitologiya (cognitive science – tafakkur haqidagi fan)dan topganday bo‘lishmoqda. Shubhasiz, lingvistik tahlil – kognitiv tahlilning bir turi, uning ma’lum bir ko‘rinishda namoyon bo‘lishidir [6. B. 9]. Aytish mumkinki, tilshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham kognitiv fon hodisasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan D.Xudoyberganovaning fikrlari e’tiborga loyiq. Tilshunos shunday yozadi: “Kognitiv fon hodisasini metafora, metonimiya, o‘xshatish, jonlantirish kabi hodisalar bilan bog‘liq holda o‘rganish antropotsentrik tilshunoslikning zaruriy muammolaridan biridir” [7. B. 36]. Bu jihatdan metafora, metonimiya, o‘xshatish, jonlantirish hodisalarini ham tilshunoslikda sinkretizm bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim masala hisoblanadi. Demak, yuqoridagi fikrlar asosida kognitivlik va sinkretizm ajralmas, bir-biri bilan bog‘liq hodisalar deb aytishimiz mumkin bo‘ladi.

Shuni qayd etib o‘tish joizki, bu borada jahon va rus tilshunosligida olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarda sinkretizmning kognitivlik bilan uzviy bog‘liqligi haqidagi qarashlar e’tiborga loyiq. Ayniqsa, bunday qarashlar L.Elmslev, O.Espersen, J.Lakoff, M.Jonson, I.R.Galperin, A.N.Veselovskiy, S.D.Kolya Nelson, S.A.Charenkov, O.I.Prosyanikova, I.A.Visotskaya, V.V.Babaytseva, V.V.Buzerovalarning tadqiqotlarida yoritiladi. Yuqorida tilga olingan tilshunoslarning asarlarida yangi ma’noning paydo bo‘lishiga olib keladigan o‘xshashlik va vazifasi bo‘yicha universal mexanizmlar aniqlangan va o‘rganilgan. O.I.Proyasnikova sinkretizmning so‘z turkumlaridagi semantik qirralariga alohida e’tibor qaratadi. Uningcha, sinkretizm umumlisoniy hodisa bo‘lib, tilning rivojlanish tarixi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki sinkretizm insonning voqelikni idrok etishi, hissiy bilishi va tafakkurida aks etadi. Bunday holda sinkretizm qadimgi ajdodlarimiz hamda biz uchun ham birdek ifodaga ega bo‘ladi. Sinkretlilik lisoniy birlik sifatida tizimli qurilish xususiyatiga ko‘ra birlashgan shaklda turli gap bo‘laklarida namoyon bo‘lishi mumkin. Muallif ingliz tili materiallari asosida ot va fe’l shakllarining o‘zaro mos kelishiga oid misollar keltiradi. U fikrining davomida, “Biz til birligining semantik xususiyatlari bilan bog‘liq dinamik siljishlariga qarab, sinkretizm hodisasini mazmun va ifoda bo‘linishini hisobga olgan holda kognitiv o‘rganishni zaruriy hisoblaymiz”, deydi [8. B. 56]. L.I.Zubova so‘z ma’nosi insonning olamdagi jismoniy faoliyati bilan bog‘liq o‘zaro munosabatidan tashkil topadi va tilda ifodalanadi, sinkretik ma’noda namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi. Uningcha, bunday til hodisasining tarixan yuzaga kelishi “mifologik tafakkur davriga qaytish, ya’ni so‘zlovchi ongida ma’no bo‘linmasligining ifodalanishidir, subyekt harakatning ishtirokchisi bo‘lsa, belgi esa uning tashuvchisi munosabatidan tashkil topadi” deb izohlaydi [9. B. 56]. Mashhur tilshunos S.D.Katsnelson sinkretizm termini haqida fikr yuritar ekan, tarixan qadimgi odamlar va bolalar nutqiga xos ekanligi, “sinkret” nomlanish va so‘zning mazmuniy tuzilishi bilan bog‘liq qo‘llanganligini ta’kidlaydi. Uningcha, sinkretizmning asosiy komponenti “sinkret”, ya’ni leksik va grammatik jihatdan ajratilmagan ma’noga egalikdir. Bunday holatda vaziyat ishtirokchilari qadimgi odam va bolalar tafakkurida predmet va boshqa elementlar sinkret yo‘l bilan tiklanadi [10. B. 43].

O‘zbek tilida ham bir so‘z turkumi shakli boshqa so‘z turkumlarining leksik-grammatik shakllarida o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lishi va turli ma’no ifodalashi kuzatiladi. Masalan, *o‘t – maysa, olov ot; o‘t – harakat fe’l; qo‘y – hayvon-ot; qo‘y – harakat fe’l; til – inson organizmi ot; til-tilimla, qismla harakat fe’l* ва ноказо. Shuningdek, *Shirin – insonga qo‘yilgan ism ot; shirin-ta’m sifat; ko‘k – osmon ot; ko‘k rang sifat* va hokazo. Ot/fe’l va ot/sifat tipidagi shakllarda ma’no taraqqiyotini o‘zak ma’nosiga yaqin o‘zaro bog‘liqligini kuzatishimiz mumkin.


M.V.Nikitin [11], E.B.Boyarskoy [12], M.A.Sternina [13] ishlarida masalaga grammatik polisemiya nuqtayi nazaridan qaralgan. Sinkretik shakllar ma’nosining ifodalanishi ikki mexanizmdan kelib chiqadi va insonning beshta sezgisiga asoslanadi. Chunki sezgi obyektlarning o‘xshashligini taqqoslash va aniqlashda sinkretik shakllarning yuzaga kelish operatsiyalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, sinkretik shakl tasvir ifodasini beradi. Shunday qilib, ot/fe’l tipidagi sinkretik shakl vaziyatga bog‘liq holda uning barcha jihatlarini idrok etishning yaxlitlikda aks etishi bo‘lib: “CAVE – g‘or, chuqur, tushkunlik harakati sabab go‘yo vazifa bajaruvchi mexanizm jihatidan; BRAIN – bosh miya, aql, idrok, fahm” kabi yuzaga kelgan singari tadqiqotchilarning ishlarida asosan so‘z yasalishi yoki leksik-ma’nolarda sezgi komponentlarining mavjudligi o‘xshashlik mexanizmi yo‘li bilan ochiladi [8. B. 86].

Buning uchun biz kognitivlik asosida sinkretizmning o‘ziga xos qirralarini ochib berishga, shuningdek, turli modellar orqali sinkretizmning kognitivlik bilan o‘zaro zich munosabatini yoritib berishga harakat qilamiz. Modellar orqali sinkretizmning kognitivlik tamoyillari asosida o‘sib borishi, tilga o‘zgacha jilo berishi xususiyatlarini o‘rganish va tahlil etish lozim bo‘ladi. O.R.Sanjarova ingliz tilidagi FIRE, rus tilidagi POJAR so‘zlarini modelga soladi va modelda sinkretizmda kognitivlikning asosi mavjud ekanligini ko‘rsatib beradi. Tahlil doirasida modelda FIRE va POJAR so‘zlarining ko‘p ma’nolilik xususiyatlari inson idroki bilan bog‘liq holda yuz berishi ochib beriladi [5. B. 121].

Bunday holat o‘zbek tili leksik tizimida ham mavjud bo‘lib, sinkretizm kognitivlikning ifodachisi sifatida insonning so‘z ma’nolarini idrok etishida muhim ahamiyatga ega sanaladi. Bu o‘rinda model yordamida TUZ leksemasining kognitivlik xususiyati sinkretizmda namoyon bo‘lishini ko‘rsatishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Insonning har qanday axborotni egallashi bevosita uning xotirasida saqlanayotgan oldingi tajribasi va bilimi doirasi miqyosida amalga oshadi. Har bir inson xotirasida ma’lum miqdordagi bilimlar strukturasi zaxirasi saqlanadi va aynan shu zaxira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o‘taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida “freymlar to‘ri to‘plami” mavjudki, ushbu to‘plam bilim va idrok faoliyatining ma’lum ko‘rinishdagi “andoza”lar asosida amalga oshishini ta’minlaydi [6. B. 41].

Yuqorida qayd etilgan ingliz tilidagi FIRE, rus tilidagi POJAR so‘zlari kabi TUZ leksemasi ham shakliy jihatdan bir kategoriyaga mansubligi va kognitivlikka ko‘ra turli grammatik kategoriyalarda sinkretik ma’no ifodalash xususiyatiga egalik vaziyatida bo‘ladi. TUZ leksemasi misolida aytish mumkinki, sinkretizm kognitivlikning ajralmas, tizimli bir bo‘lagidir. Sinkretizm hodisasi insonning moddiy olamni idrok etishiga asoslanadi. Yuqoridagi qarashlarga asoslangan holda, idrokning universalligi hamda sinkretizmning paydo bo‘lishi sabablaridan biri kognitivlik deb tushuniladi. Ma’lum bo‘ladiki, sinkretizmning yuzaga chiqishida idrokning geshtaltga bog‘liqligi kognitivlikda muhim ahamiyatga ega sanaladi. Aytish mumkinki, kognitivlikda idrokning ratsional va hissiy bilish qismlarining o‘zaro birligi geshtaltga bog‘liq hisoblanadi. Idrok etilayotgan vaziyat elementlarining tarkibi xuddi birlashgan (yaxlit) kategoriya va konseptlashgan metonimik tamoyilga asoslanadi. Metonimiya kognitiv jarayondir. A.Blank metonimiya lingvistik xususiyatga ega bo‘lib, kognitivlik freym elementlari orasidagi o‘zaro konseptual munosabatlarga tayanadi deb qaraydi [14. B. 69]. Masalan, *Husnida go‘zal qiz* yoki *Nodir o‘ktam yigit* jumlalarida *go‘zal* va *o‘ktam* leksemalarida tashqi ko‘rinishga xos ma’no berilishi axborot uzatuvchi tomonidan tinglovchining axborotni qabul qilish, idrok etish tamoyillariga asoslanadi. Avvalo tinglovchi axborotni shunchaki qabul qilishi, *Husnidaning go‘zal* va *Nodirning o‘ktam* ekanligi bilan cheklanishi mumkin. Keyingi o‘rinda *go‘zal* va *o‘ktam* leksemalari orqali matn bilan

bevosita bog‘liq holda Husnida va Nodirning ichki imlitsit (yashirin) ma’nolariga urg‘u berilishi insoniylik sifatlarini idrok sintezidan o‘tkazilishiga bog‘lanadi. Bilamizki, yuqorida keltirilgan *Husnida go‘zal qiz* yoki *Nodir o‘ktam yigit* jumlalaridagi *go‘zal* va *o‘ktam* leksemalari kognitivlik asosida o‘rganilsa, ularda nafaqat insonning tashqi ko‘rinishi haqida, shuningdek, ichki olami to‘g‘risidagi axborot mavjudligi tafakkur sintezidan o‘tadi. Ko‘rinadiki, metonimiyaga kognitiv yondashuv olam haqidagi bilimlarni birlashtiruvchi usul maqomida alohida ko‘rinishga ega bo‘lib, metonimik konseptlarning mental tuzilishiga bog‘lanadi. Metonimik konseptlar tafakkurimizdagi biror narsaning eng muhim ma’nosi doirasida va u bilan bog‘liq boshqa doiradagi narsalarning ichki mazmuni bo‘lib, ularning turli-tuman xossalarini va munosabatlarini yaxlit aks ettiradi. Shu bilan birga, tafakkur qismlari tizimidagi nutq va xulq-atvorning birligidan paydo bo‘ladi. Metonimik konsept asoslari metaforik kontseplarga qaraganda aniqroq bo‘ladi, chunki metonimik munosabatning ildizi tajribaga asoslanadi [15. B. 63].




N.N.Boldirevning ta’kidlashicha, inson tomonidan jismoniy olamni yaxlit (sezgilar orqali va mantiqiy) idrok etilishi kognitiv lingvistikada ta’rif etilgan geshtaltdan boshqa narsa emas. “Konseptual tuzilishning yaxlit tasviri o‘zidagi bir-biri bilan bog‘liq ajralmas ratsional va hissiy bilish komponentlar birligi va natijalarining yaxlitligi idrokning yuqori darajadagi mavhum: diskret bo‘lmagan, tuzilmagan bilimi hisoblanadi” [16. B. 69].

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, inson xotirasida bilimlarning metonimik tamoyillar asosida tartibga solinishi insonning geshtalt tabiatidir. Shunday qilib, sinkretizm til va nutq shakllari orqali amalga oshadigan hodisa hisoblanadi. Yuqorida berilgan sxemada o‘zbek tilidagi TUZ leksemasining sinkretik tabiati ot+fe’l+sifat shakllaridan iborat bo‘lgan makrofreymlarda ko‘rsatilgan. Ushbu makrofreym xotiraning kognitiv tuzilmasi bo‘lib, TUZ tushunchasiga

asoslangan aniq va bilvosita ko‘plab stereotipik vaziyatlarni birlashtiradi. Ya’ni TUZ leksemasi til va nutqda bir shaklda turli ma’nolarni ifodalaydi, turli so‘z turkumlarga mansub bo‘ladi va implitsit (yashirin) ma’no ifodasiga ega bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, sinkretizmning yuzaga kelishida idrok etishning kognitivlikligi muhim ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo‘ladi.

Kognitivlik idrokning ratsional va hissiy bilish bilan bog‘liq elementlarining yaxlitligi geshtalt bilan bog‘liq ekani bir qator tilshunoslar tomonidan aytilgan. Jumladan, tilshunos Sh.Safarov shunday yozadi: “Voqelikdagi obyektlarning yaxlitlikda, xolislikda idrok etilishi xuddi shu tamoyillarga asoslangan. Masalan, turli ko‘rinishdagi uy binolari suratini solishtirsak, ularning barchasida umumiy elementlar bor (deraza, eshik, devor, tom va hokazo). Biz bu suratlarni birinchi ko‘rganimizda binolarni alohida qismlarga ajratmaymiz, aksincha, faqatgina bino sifatida ko‘ramiz. Bunda yaxlitlik idroki, geshtalt tamoyillari amal qiladi: Binoning barcha qismlari bir-biriga yaqin, bog‘liq (“yaqinlik tamoyili”); binoning eshiklari bir xil (“o‘xshashlik tamoyili”); binoning barcha elementlari bir-birini davom ettiradi, o‘zaro aloqada (“davomiylik tamoyili”)” [6. B. 49]. Anglashiladiki, idrok etilayotgan vaziyat elementlarining tarkibi xuddi birlashgan kategoriya va konseptlashgan metonimik tamoyilga asoslanadi. Metonimiya kognitiv jarayon sifatida o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq predmet, narsa, voqea, harakat-holat haqidagi tushunchani imlitsit, sinkretik voqelantiradi. Masalan, qurol leksemasi yaxlit obraz sifatida idrok etilganda insonning hayotiga nuqta qo‘yuvchi, o‘lim belgisini anglatuvchi predmet sifatida tushuniladi. Biroq yuqorida ko‘rsatib o‘tilgandek, geshtalt tamoyiliga asoslangan holda o‘rganilsa yaqinlik tamoyili, o‘xshashlik tamoyili, davomiylik tamoyili bilan tutashadi. *Tursunboy miltiqni otdi. Nigoraning so‘zlari miltiq. Pichoqni urdi. Pichoq suyakka qadaldi. Kitob Navoiyga tegishli. Hayotning o‘zi bir kitob singari. Bilimi bor mingni yiqitar, bilimsiz birni* (Maqol). *Bilimli o‘zar, bilimsiz to‘zar (Maqol). Qilich bilan chopdi. Uning so‘zlari qilichdek keskir* singari jumlalarda qurol bilan bog‘liq metonimik jihatlar yaqqol ko‘rinadi. Quyidagi sxemaga e’tibor qarataylik, unda qurol bilan bog‘liq leksemalar tasnifi beriladi.



Sxemadan ko‘rinadiki, qurol leksemasi idrok etish jarayonida ratsional va hissiy bilishning bog‘liqligi asosida voqelanadi. Ya’ni *qurol* leksemasi o‘zida *qurol* bilan bog‘liq bo‘lgan predmetlar tasvirini yuzaga chiqaradi. Bunda qurol bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan inson xotirasi zaxirasida mavjud bo‘lgan bir qancha qurollar to‘plami namoyon bo‘ladi. Bu borada tadqiqot olib borgan O.N.Sajarova sinkretizmning bu sxemaga aloqadorlik jihatlarini quyidagicha ochib berishga harakat qiladi. Uningcha, sinkretizmning geshaltga aloqadorlik jihatlarini yoritib berish uchun quyidagilarga ahamiyat berish muhim sanaladi: 1) geshtalt insondagi idrok va xotira tuzilmasida jismoniy voqelik bilan bog‘liq muhrlanadi; 2) bu jarayonda tuzilmalar insonda darajali semantik jihatdan mental maydon yarata oladi. Bunday vaziyatda, jarayon ikkiga ajraladi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, insonda ro‘y berayotgan jarayonlar, his-tuyg‘ularni idrok etishning geshtalt ko‘rinishidagi reaksiyalarining yaxlit tasviri tiklanadi. Inson ongiga taalluqli bo‘lgan geshtalt axborotlarni qabul qilib olish jarayoni ikki darajaga ajratiladi.

Konseptual tuzilma darajasiga yetib bormagan, axborot tuzilishi bo‘lmagan (his-tuyg‘u, sezgi, xarakter-xususiyat ifodalovchi belgilar va mavhum tushunchalar) usullar shakllanadi. Bu axborot asosiy sohalar (domen) ko‘rinishida konseptual tuzilmalar orqali ifodalanadi.

Kognitivshunos olimlarning fikricha, axborot tuzilishiga ega bo‘lgan xotira freymlari (ko‘p komponentli konseptlar) kategoriyasiga ega predmetlik ma’nosini anglatadi. Geshtalt metaforik xotira sifatida bir qancha – nafaqat ratsional, shuningdek, hissiy elementlar, ayni paytda konseptlar radial (kategoriya) kategoriyalar va freymning metonimik tamoyillari asosida yuzaga keladi [5. B. 121].

Ko‘rinadiki, freym hamda geshtalt haqidagi kognitiv tushunchalar sinkretizmning tilda namoyon bo‘lishida o‘ziga xos muhim hodisa sifatida talqin etiladi. Demak, har ikki jarayon axborot mazmunini alohida ko‘rsatishni emas, balki inson tafakkuridagi obrazlarning yaxlit jamlanmasiga xos sinkretik tabiatni ko‘rsatish hisoblanadi.

Tahlil etilayotgan TUZ leksemasi makrofreymining voqelanishi bilan bog‘liq jarayonga qaytsak, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, makrofreymda sinkretik xotira mexanizmi predmetlik tushunchasiga bog‘lanadi. Bu yerdagi ma’no taraqqiyoti ko‘chirish yo‘llaridan metonimiyaga to‘g‘ri keladi: predmet – shu predmet ta’siri natijasida voqe bo‘ladigan predmet [17. B. 67]. Metonimiyaga an’anaviy yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilsa, qo‘shnichilik tushunchasi asosiy tamoyil bo‘lishini hisobga olish kerak. An’anaviylikka ko‘ra, obyektiv voqelik uzviylikdan iborat munosabatni tashkil etadi, kognitiv yondashuv esa konseptual darajani ko‘rib chiqadi. J.Lakoff va M.Jonsonlar metonimiyani konseptual assotsiatsiyalar ifodasi atamasi bilan bog‘liq holda o‘rganadilar. J.Lakoff metonimik yaxlitlikni ideallashtirilgan kognitiv modellar doirasida ko‘rib chiqadi [18]. Boshqa mualliflar yaxlit tasvir idrokning freym, ssenariylardagi ko‘rinishidir, degan fikrni bildiradilar. Bu model asosida bizning predmet haqida olgan bilimimiz to‘plami turadi. Bu vaziyat sxemada ko‘rsatilgan TUZ leksemasi tavsifida aniq ko‘rinadi. TUZ leksemasi makrofreymи *oqlik, sho‘rlik, kristall modda, ovqat, o‘yin, harakat va boshqa harakat-holat* belgisini beruvchi obyektlarning tavsifini o‘zida jamlaydi. Bu makrofreymda *tuz-kristall modda-ot, tuz-harakat-fe’l, tuz-oq belgi-sifat* va boshqa ma’nolar metonimik tushunchalardir. Makrofeym tuzilmasi, vaziyatlarning farqiga qaramay, metonimik tamoyilga asosan shakllantiriladi. Faollashgan alohida freymlar haqidagi axborot makrofreymga birlashadi, buning natijasida keyingi mental maydon yoki dyumen matritsa paydo bo‘lishiga olib keladi [5. B. 121]. Marofreymdagi barcha ma’nolar metonimik (eng ko‘p) ma’no hamda metaforik va to‘g‘rida-to‘g‘ri (kam bo‘lgan) ma’noga ega bo‘ladi. Ayni paytda voqelangan mental maydonning turli xil streotipik vaziyatlaridan olingan axborotlarni o‘z ichiga oladi va TUZ leksemasi idrok orqali voqelanadi. Shunday qilib, TUZ bilan bog‘liq makrofreymni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “sinkretik diagramma” deb atashimiz va tashkil topish jarayonini esa sinkretik maydon sifatida bilishimiz mumkin bo‘ladi.

E’tibor berilsa, TUZ leksemasining birlamchi uzual ma’nosi – organik maza-ta’m ifodalovchi modda. Qolgan signifikativ ma’nolari inson idroki fonida freym tushunchalari bilan bog‘liq kengayib boradi. Demak, TUZ leksemasi modda tarkibidan chiqadi va boshqa predmetlar bilan bog‘liq ma’no kengayishiga uchraydi.

Metonimiyani kognitiv o‘rganish jarayoni biz uchun muhim bo‘lgan masala ekanligi yuqoridagi tahlillarda ochib berishga harakat qilindi. Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, kognitiv metonimiyani nazariy va empirik o‘rganish tildagi juda ko‘p masalalarga oydinlik kirita olishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, metonimiyaning nazariy asosini o‘rganish bilan bog‘liq bir qator savollar ham uning sinkretik tabiatini ochib berish uchun xizmat qiladi. Gap shundaki, bu ideallashtirilgan kognitiv model metonimiya bilan bog‘liq yuz beradi. Chunki metonimiya ishtirok etgan har qanday matnda ideallashtirilgan model mavjud bo‘ladi. Biz ideallashtirilgan kognitiv modelning shakllanishiga e’tibor qaratsak, konseptuallashtirilgan narsalarning (obyektlar, hodisalar, og‘zaki shakllar, ularning ma’nolari, obyektiv olam, predmetlar, voqealar va boshqalar) tasviri mavjudligini anglaymiz. Masalan, ideallashtirilgan kognitiv model sifatida “DARS” leksemasini olib ko‘raylik. “DARS” ideallashtirilgan kognitiv modeli quyidagi tushunchalar bilan bog‘lanadi: *o‘qituvchi, sinf, parta, stul, o‘quvchi, doska, kitob* va boshqalar. Keltirilgan tushunchalar o‘zi bilan bog‘langan modellar doirasida metonimik munosabatni hosil qilishi mumkin. Tahlilga e’tibor qarataylik: *Meni doskaga chaqirishdi* (uy vazifasini bajarish ma’nosida); *Sinf jim bo‘ldi* (sinfdagi o‘quvchilar ma’nosida); *Dars qiziqarli bo‘ldi* (Darsni o‘tish jarayoni materiallarga boy, qiziqarli va mazmunan to‘liq ma’nosida); *Kitob adabiyotga tegishli* (kitob adabiyot fanига tegishli ma’nosida). Ko‘rinib turibdiki, mantiqan har bir harakat-holat bir-biri bilan sababiy munosabatni yuzaga chiqaradi, bu munosabat boshqa munosabatlarning rivojiga shart-sharoit yaratadi. Buning kognitiv tilshunoslikdagi ssenariyga bog‘lanishi DARS leksemasining yanada kengroq ochilishiga yordam beradi. Chunki bu bog‘lanish inson tafakkurida mavjud bo‘lgan dars jarayoni bilan bog‘liq vaziyatlarda voqelanadi. Shuningdek, og‘zaki so‘zlashuvda *barchaga dars beradi, hayot o‘zi darsxona, hayot darslik* singari so‘z qo‘shilmasi va iboralar uchraydi. Demak, DARS leksemasining kognitiv freym modellari sinkretizm bilan bog‘liq voqelanadi. Chunki birinchi iborada dars leksemasi *chaqqon, o‘ziga qaratadi, bilimli ma’nolarida kelsa, ikkinchi ibora darsxona saboq oladigan, saboq beradigan, anglatadigan* ma’nolarida, uchinchi ibora *darslik o‘rganadigan, o‘qiydigan, mazmun oladigan; barcha hayotiy tushunchalarni qadrlovchi* ma’nolarini anglatadi.

Shunday qilib, sinkretik shakllardagi ma’no taraqqiyoti ikki: semantik va kognitiv yondashuvlar birligi asosida o‘rganildi. O.I.Proyasnikova (semantika) va O.N.Sanjarova (kognitiv) qarashlarida so‘zning shakllanishi va rivojlanishidagi sinkretik shakl nazariyasi tamoyili zamonaviy tilshunoslik uchun yangicha qarash hisoblanadi. Sinkretik shakldagi ma’noning rivojlanish mohiyatini chuqurroq tushunish uchun ushbu hodisani lingvistikadan tashqari, koginitivlik darajasida ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu ikki hodisa bir-biriga zid emas, balki bir-birini har tomonlama to‘ldiruvchanligi bilan xarakterlidir. Maqolada faqat kognitiv metonimiya bilan bog‘liq sinkretlik haqida fikr yuritildi, biroq o‘z navbatida til va nutq hodisasi bo‘lgan kognitiv metaforada ham sinkretizmning asoslari mavjud. Demak, bu o‘rganilishi lozim bo‘lgan alohida tadqiqotdir.

Adabiyotlar:

1. *Чареков С.Л.* Семантическая структура словооброзования в русском и алтайских языках: моногр. – Санкт-Петербург: ЛГУ им. А.С. Пушкина, 2009. – 116 с.

2. *Щирова И.А.Гончарова Е.А*. Многомерность текста: понимание и интерпретация. – Санкт-Петербург: ООО “Книжный Дом”, 2007. – 472 с.

3. *Просянникова О.И*. Глагольные значения от синкретических форм с предметным значением существительного // Вестеик Тверского государственного университета. Серия: Филогия, 2011. – № 4. – С.103–112.

4. *Сулименко Н.Е.* Когнитивный аспект семантики русских прилагательных // Вопросы когнитивной лингвистики, 2012. – № 2 (31). – С. 79–91.

5. *Санжарова О.Н*. Синкретизм: когнитивные истоки происхождения и когнитивные основания // Известия Волгоградского государственного педагогического университета, 2020. – №3. – С. 120–125.

6. *Сафаров Ш*. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 с.

7. *Худойберганова Д.* Матннинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 1. – Б. 35–39.

8. *Просянникова О.И*. Синкретические формы типа существительное/глагол в английском языке: дисс…д-р. филол.наук. – Санкт-Петербург, 2013. – 286 с.

9. *Зубова Л.В*. Поэзия Марины Цветаевой. (Лингвистический аспект). –Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1989. – 264 с.

10. *Кацнельсон С.Д*. Язык поэзии и первобытнообразная речь // Известия Академии наук СССР. Отделение литературы и языка, 1947. Т. VI. Вып. 4. – С. 43–49.

11. *Никитин М.В*. Курс лингвистической семантики. – Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2007. – 819 с.

12. *Боярская Е.Л.* Когнитивные основы новых значений полисемантичных существительных современного английского языка: дисс... докт. филол. наук. – Калининград, 1999. – 217 с.

13. Стернина М.А. Лексико-грамматическая полисемия в системе языка: опыт разработки интегральной теории полисемии: автореф. дисс. док. филол. наук. – Воронеж, 2000. – 38 с.

14. *Blank A.* (1999). Co-presence and succession: A cognitive typology of metonymy. / In: Metonymy in Languageand Thought. – Amsterdam / Philadelphia: JohnBenjamins. – Pp. 169–191.

15. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем / Перевод с английского А. Н. Баранова, А.В.Морозовой. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.

16. *Болдырев Н.Н*. Когнитивная семантика: курс лекций по английский филлогии. – Тамбов: Издательский дом ТГУ, 2014. – 236 с.

17. *Раҳматуллаев Ш*. Ҳозирги адабий ўзбек тили. 1-қисм. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2010. – 286 с.

18. *Lakoff, G*. Women, Fire and DangerousThings: What Categories Reveal about theMind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 632 p.

COGNITIVE APPROACH TO SYNCRETISM

O.M. Tojiev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 83-91.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: syncretism, script, gestalt, frame, metonymy, metaphor, conceptual, sensory, rational.

Theoretical views about the basis of cognitive syncretism in twentieth-century linguistics have been the subject of many scientific studies. The fact that syncretism is a phenomenon inextricably linked with cognition has been emphasized in the work of 21st century linguists on cognitive metonymy and metaphor. This article reveals that the presence of metonymy, which are elements of cognitive linguistics, scenario, gestalt, and frames, is inextricably linked with syncretism. It is highlighted that the phenomenon of cognitive metonymy through syncretism is rich in language and speech.

Cognitive processes related to the emergence of language phenomena are based on perception, thinking, knowing, understanding. In the structure of cognitive linguistics, the thinking process of a person is first of all. Such understanding consists of categories, concepts, models, frames, and other processes. It can be said that the main goal of cognitive description of language units is to identify and describe close relationships between language units, as well as to show thinking and its expression in speech.

From the observations, it is clear that organizing knowledge in human memory based on metonymic principles is the gestalt nature of man. Thus, syncretism is a phenomenon realized through language and speech forms. Metonymy as a cognitive process implicitly, syncretically embodies the concept of an interrelated object, thing, event, action-state.

The above analyzes tried to reveal that metonymy is an important issue for us in the process of cognitive learning. It is clear from the analysis that the theoretical and empirical study of cognitive metonymy makes it possible to clarify many issues in language. At the same time, a number of questions related to the study of the theoretical basis of metonymy also serve to reveal its syncretic nature. The fact is that this idealized cognitive model occurs in connection with metonymy. Because any text involving metonymy will have an idealized model. If we pay attention to the formation of an idealized cognitive model, we understand that there is an image of conceptualized things (objects, events, verbal forms, their meanings, objective world, objects, events, etc.).

This article has studied the development of meaning in syncretic forms based on the unity of two: semantic and cognitive approaches. In order to gain a deeper understanding of the nature of the development of meaning in the syncretic form, it is important to consider this phenomenon at the cognitive level, in addition to linguistics. Because these two phenomena are not mutually exclusive, but are characterized by their complementarity. The article only discussed the syncretism associated with cognitive metonymy, but in turn, cognitive metaphor, which is a language and speech phenomenon, also has the foundations of syncretism. So, this is a separate study that needs to be explored.

References:

1. Charekov, S.L. (2009) *Sematicheskaya struktura slovoobrozovaniya v russkom i altajskih yazykah* [Semantic structure of word formation in Russian and Altai languages]. Sankt-Peterburg: LGU.

2. Shchirova, I.A., Goncharova, E.A. (2007) *Mnogomernost teksta: ponimanie i interpretaciya* [Multidimensionality of the text: understanding and interpretation]. Sankt-Peterburg: OOO «Knizhnyj Dom».

3. Prosyannikova. O.I. (2011) Glagolnye znacheniya ot sinkreticheskih form spredmetnym znacheniem sushestvitelnogo [Глагольные значения отсинкретических форм спредметным значением сушествительного]. *Vesteik Tverskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Filogiya*. No 4. Pp.103-112.

4. Sulimenko, N.E. (2012) Kognitivnyj aspekt semantiki russkih prilagatel'nyh [Cognitive aspect of the semantics of Russian adjectives]. *Voprosy kognitivnoj lingvistiki*. No 2 (31). Pp. 79-91.

5. Sanjarova, O.N. (2020) Sinkretizm: kognitivnye istoki priskhozhdeniya i kognativnye osnovaniya [Syncretism: cognitive origins of origin and cognitive foundations]. *Izvestiya Volgogradskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo*. 3. Pp. 120-125.

6. Safarov, Sh. (2006) *Kognitiv tilshunoslik* [Cognitive linguistics]. Jizzakh: Sangzor.

7. Khudoyberganova, D. (2012) Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar [Metaphors in the content of the text]. O'zbek tili va adabiyoti. No 1. Pp. 35-39.

8. Prosyannikova O.I. (2013) Sinkreticheskie formy tipa sushchestvitelnoe/glagol v anglijskom yazyke [Syncretic forms of the noun/verb type in English]. The dissertation for Doctor of Philological Sciences. Sankt-Peterburg.

9. Zubova, L.V. (1989) *Poeziya Mariny Cvetaevoj*. (Lingvisticheskij aspekt) [Poetry of Marina Tsvetaeva. (Linguistic aspect)]. Leningrad: Izdatelstvo Leningradskogo universiteta.

10. Kacnelson, S.D. (1947) Yazyk poezii i pervobytnoobraznaya rech' [The language of poetry and primitive speech]. *Izvestiya Akademii nauk SSSR.Otdelenie literatury i yazyka*. Vol. VI. Issue. 4. Pp. 43-49.

11. Nikitin, M.V. (2007) *Kurs lingvisticheskoj semantiki* [Course of linguistic semantics]. Sankt-Peterburg: Izd-vo RGPU.

12. Boyarskaya, E.L. (1999) Kognitivnye osnovy novyh znachenij polisemantichnyh sushchestvitelnyh sovremennogo anglijskogo yazyka [Cognitive foundations of new meanings of polysemantic nouns in modern English]. The dissertation for Doctor of Philological Sciences. Kaliningrad.

13. Sternina, M.A. (2000) Leksiko-grammaticheskaya polisemiya v sisteme yazyka: opyt razrabotki integral'noj teorii polisemii [Lexico-grammatical polysemy in the language system: experience in developing an integral theory of polysemy]. Abstract of Dissertation for the degree of Doctor of Philological Sciences. Voronezh.

14. Blank, A. (1999). Co-presence and succession: A cognitive typology of metonymy. In: Metonymy in Languageand Thought. Amsterdam / Philadelphia: JohnBenjamins. Pp. 169-191.

15. LakoFF, Dzh., Dzhonson,M. (2004) *Metafory, kotorymi my zhivem* [Metaphors we live by]. Moscow: Editorial URSS.

16. Boldyrev, N.N. (2014) *Kognitivnaya semantika: kurs lekcij po anglijskij filologii* [Cognitive semantics: course of lectures on English philology]. Tambov: Izdatelskij dom TGU.

17. Rahmatullaev, Sh. (2010) *Hozirgi adabiy o'zbek tili* [Current literary Uzbek language]. Part 1. Tashkent: Mumtoz so'z.

18. Lakoff, G. (1987) *Women, Fire and DangerousThings: What Categories Reveal about theMind*. Chicago: University of Chicago Press.

Muallif haqida ma'lumot:

TOJIYEV Olimjon Mo'ydinovich – filologiya fanlari nomzodi. Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: o.tojiyev1960@gmail.com